


To'ra Bobolov: Respublikadagi eng arzon uylar Surxondaryoda bo'lishi kerak. Sababi qurilishda ishlatiladigan tosh, sement, g'isht, beton plitalar viloyatda ishlab chiqariladi.



Mamlakatimizda nogironligi bor, mehnatga layoqati cheklangan, fuqarolar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu islohotlar samarasi yurtdoshlarimizning hayotdan rozi bo'lib yashashida o'z ifodasini topmoqda.

Yangi yil bayrami arafasida Surxondaryo viloyati, Termiz shahri Manguzar mahallasida uy-joyga muhtoj yurtdoshlarimiz uchun bunyod etilgan yangi uylar o'z egalariga topshirildi. Unda viloyat hokimi To'ra Bobolov ishtirok etib, xonadon egalarini yangi uy-joylar bilan tabrikladi.

– Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan xayrli ish bugun yana 100 nafar oilalar, nogironligi bo'lgan xotin-qizlarning qalbida ertangi kuniga umid va ishonchini mustahkamladi, – dedi To'ra Bobolov. – Bu kun sizlar uchun qanchalik qadrli ekanligini men yuragimdan his qilaman. Ushbu oilalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, uy-joylari uchun boshlang'ich to'lovi to'lab berildi. Eng asosiysi, bu uy-joylar ham mustahkam, yashash uchun tayyor holda nisbatan arzon narxda sizlarga topshirilmoqda. Ya'ni, 1 kv. metr uchun 3 mln. 200 ming so'm. Bundan keyin shahar va tumanlarda shunday uylar quriladi. Buning uchun viloyatimizda barcha imkoniyat mavjud. Qurilish materiallarning deyarli barchasi o'zimizda ishlab chiqariladi. Qum-tosh, sement, g'isht, beton plitalar boshqa hududlar kabi uzoqdan olib kelinmaydi. Xo'sh, nima uchun qimmat bo'lishi kerak?! Endi quriladigan yangi uylar xalqimizga ma'qul keladigan narxlarda qurilishi kerak. Bu asosiy talablardan biri bo'ladi.

Viloyat rahbari keng jamoatchilik vakillari ishtirokida uy-joyga muhtoj 100 nafar fuqaroga yangi uylarning kalitlarini tantanali topshirdi.

Shundan so'ng, nuroniylar hamrohligida xonadonlarda bo'lib, uy egalarining quvonchiga sherik bo'ldi.

– Ikkinchi guruh nogironiman. Ayolim universitetda farrosh bo'lib ishlaydi. Bir nafar farzandimiz bor. 22 yildan beri opamning uyida yashar edik. Yaratganning o'ziga shukur! Mana, yangi yilni endi oilam bilan o'zimizning uyimizda kutib oladigan bo'ldik. Prezidentimizga mingdan-ming rahmat. Yillar davomidagi orzu va armonlarimizni ushalishi uchun asosiy sababchi bo'ldilar, – deydi xonadon egalaridan biri Alisher Saidmurodov.